

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahan iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 490 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassis	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , сокисатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmn rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati.....	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl ulti , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiy fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	
Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuzyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsions menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetydan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	

MUNDARIJA CODER JAHONI



Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Kudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlарining tahlili.....	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmukamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккулай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шукратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsions jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari	262
Do'sanov Doniyor , magistr	
Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anjon qizi , Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna , PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadudev So'hrob Jumakulovich , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova , talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna , к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz , Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna , tayanch doktorant	



O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna , magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li , tayanch doktarant	
Оптимизация операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурабаев Отабек Джурабаевич , доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich , magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли , студент; Абдикиримова Динара Рустамхановна , научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna , Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li , kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna , tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации	373
Д. К. Исмагилов , кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo , PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich , mustaqil tadqiqotchi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language	
Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli , Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidlilagini ta'minlash yo'llari.....	411
Bauyeddinov Majit Janizaqovich	
Addressing the Training Needs of Tourism Staff for Sustainable Practices in the Green Economy Era.....	415
Dadamuxamedova Mushtariy	
Стратегия сокращение бедности и повышения благосостояния населения.....	422
Хайтов Шербек Наимович , Кандидат экономических наук, доцент	
Inson kapitaliga investitsiya kiritishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	430
Axmadalieva Niholaxon , Toshkent moliya instituti o'qituvchisi	
Пути применения цифровых технологий в организации мониторинга деятельности высших учебных заведений Республики Узбекистан.....	436
Садиков Шохрух Шухратович, Независимый исследователь	
Fundamentals of creating the infrastructure for the use of e-commerce platforms in the digital economy system of Uzbekistan.....	441
Sodikova Dilafruz Zokhid qizi , manager	
Sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona marketing miks va korporativ imij bilan tizimli munosabatlар modeli.....	449
Eshmatov Sanjar Azimkulovich , i.f.f.d.(PhD)	
Kambag'allikni qisqartirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining tutgan o'rni.....	456
Bararov Sa'dulla Norjigitovich , TDIU Samarkand filiali tayanch doktoranti	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	460
Nosirova Charos , Teacher, Tashkent State University of Economics	
Qorako'lchilik tarmog'i samaradorligini oshirishda agroturistik xizmatlarning o'rni va ahamiyati.....	468
Ж.Я.Нуриллаев , i.f.n. dotsent	
O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning hozirgi holati tahlili.....	474
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , i.f.n. dotsent	
Davlat ulushini xususiylashtirishda investorlar faolligini ta'minlash yo'llari "uzauto motors" aj ipo amaliyoti misolida.....	481
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsent, PhD	



DAVLAT ULUSHINI XUSUSIYLASHTIRISHDA INVESTORLAR FAOULLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI "UZAUTO MOTORS" AJ IPO AMALIYOTI MISOLIDA



Mamatov Bahromjon Shavkatovich
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Investitsiyalar va moliya bozori" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlari shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirishni samarali tashkil etish orqali arzon kapital jalg qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Davlat tasarrufidagi aksiyalar paketini xususiy investorlarga sotish orqali kapital jalg qilish, keng jamoatchilik uchun o'z jamg'armalarini aksiyalarga investitsiya qilish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aksiya, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti, kapital jalg qilish, davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat aktivlarini xususiylashtirish, fond bozori.

Аннотация: В данной статье анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных ученых на данную тему, а также возможности привлечения дешевого капитала посредством эффективной организации публичного размещения акций. Представлены научные выводы и практические предложения о способах привлечения капитала путем продажи пакета государственных акций частным инвесторам, а также о способах инвестирования населением своих сбережений в акции.

Ключевые слова: Акции, практика публичного размещения акций, привлечение капитала, государственные предприятия, приватизация государственных активов, фондовый рынок.

Abstract: This article analyzes the scientific views of local and foreign scientists on the subject, as well as the possibilities of attracting cheap capital through the effective organization of public placement of shares. Scientific conclusions and practical suggestions are presented on ways to attract capital by selling a package of state-owned shares to private investors, and ways for the general public to invest their savings in shares.

Key words: Stock, the practice of public placement of shares, capital raising, state-owned enterprises, privatization of state assets, stock market.

KIRISH

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish biznes uchun arzon kapital jalg qilish orqali yuqori samaradorlikka xizmat qilsa, investorlar va aholi uchun daromad manbalarini diversifikatsiyalash hamda oshirishga xizmat qiladi. Bugungi iqtisodiyotning faol tarzda raqamlashuvি sharoitida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti globallik kasb etmoqda. Ya'ni IPO amaliyotlariga global amaliyot sifatida yondashilmoqda. Bunga bugungi texnologik rivojlanish to'la-to'kis imkon bermoqda.

Mamlakatimizda ham bu borada Kvars, Qo'qon mexanika zavodi, Jizzax plastmassa, Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyatları misolida ma'lum bir ijobjiy yoki salbiy tajribalar olindi. Lekin aynan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari orqali erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlardan yetarlicha foydalaniłmoqda, deya olmaymiz.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'lsin. Odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo'lsin. Shuning uchun topshiriq berdim: kelgusi-yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o'z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinnakam xalqchil IPO bo'lishiga ishonaman" [4], deya alohida qayd etgan edilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 24 mart kuni o'tkazilgan davlat mulkini xususiyashtirish ishlarining ijrosi va bu borada joriy yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig'ilishda "40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi "xalqchil IPO" orqali sotiladi. Jumladan, ilk bor Navoiy va Olmaliq kombinatlari, Metallurgiya kombinati, "O'ztelekom", Milliy bank, Sanoatqurilishbank kabi yirik korxonalarining o'rtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etiladi. Bunda aholiga aksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish imkoniyati yaratiladi. Aksiyalari sotilgan korxonalar besh-yil davomida sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltiradi"[1], deya ta'kidlandi.

Keltirilgan ijobiy jihatlarga qaramasdan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotining o'ziga xos prinsiplari mavjud bo'lib, ularga rioya qilish bunday amaliyotlarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Shu boisdan bu borada alohida tadqiqotlar muhim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyalarni ommaviy joylashtirishni samarali tashkil etish orqali arzon kapital jalb qilish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e'tiboridagi tadqiqot mavzularidan biridir.

J.Qurbanov, S.Omonov, D.Nuraliyevalar tomonidan xalqaro IPO amaliyotlari tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, unda aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishning tashkiliy bosqichlari, aksiyalar bo'yicha narx diapazonlarini belgilash, bu boradagi eng yirik amaliyotlar, institutsiyaonlar investorlar va anderrayterlarning faolligi kabilarga e'tibor qaratilgan[5].

Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borayotgan Q.Cinchulov "Ustav kapitalida davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushi (aksiya paketi) mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushlari (aksiya paketlari)ni birlamchi ommaviy taklif (IPO) o'tkazish orqali joylashtirish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar orqali moliyalashtirishni samarali tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga qo'shimcha mablag' hamda xususiy investorlarni jalb etish imkoniyatlari yaratiladi"[6], deya ta'kidlaydi.

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlariga doir monografik tadqiqotlarni amalga oshirgan B.Boyevga ko'ra "aksiyadorlik jamiyatları tomonidan individual investorlariga aksiyalarni ommaviy taklif qilish davri sifatida aholi daromadliligi va xarid quvvati nisbatan yuqori bo'ladigan davrni belgilash, shuningdek rentabelligi va bozordagi nufuzi yuqori davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatları ustav kapitalidagi davlat ulushini SPO amaliyoti orqali bozor bahosida sotish hamda xususiyashtirishning keyingi bosqichlarini samarali tashkil etish lozim"[7]. Mazkur jihatga bugungi kunga qadar mamlakatimizda samarali foydalanilmoqda, deya olmaymiz.

A.Karimovning mamlakatimizda amalga oshirilgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti tahlillariga doir tadqiqotlarida aksiyalarni joylashtirish bahosini har tomonlama asosli belgilash lozimligi qayd etilgan[8]. Haqiqatda bu borada muammolar mavjud bo'lib, birgina Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyati aksiyalari nominalga nisbatan 14,5 baravar yuqori belgilanganligi bunga misol bo'la oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, aksiyadorlik jamiyatları tomonidan IPO amaliyotini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganda bosh maqsad arzon va yuqori miqdorda moliyaviy resurs jalb qilishni maqsad qilgan bo'ladi. Kutilayotgan IPO amaliyotlarining samarali kechishini ta'minlash orqali



qo'yilgan maqsadga erishish uchun esa bu borada e'tibor qaratish lozim bo'lgan ma'lum bir jihatlar mavjud. IPO amaliyotida e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'ziga xos muhim bosqichlar shular jumlasidandir.

Institutsional investorlar bazasining shakllanishi uzoq muddatli jarayon bo'lib, asosan tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, pensiya jamg'armalari va investitsiya fondlaridan tashkil topadi. O'zbekiston kabi rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan o'tgan Polsha, Ruminiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda institutsional investorlar bazasi dastavval davlat banklari, sug'urta tashkilotlari va pensiya jamg'armalarini mahalliy kapital bozoriga jalb qilgan holda shakllantirilgan. UzAuto Motors" AJ IPO amaliyotida "Kapitalbank" ATB va ATB "InFinBank" banklardan tashqari boshqa tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari ishtirok etmadi.

Davlat korxonalarini va banklari tomonidan investitsiya tarixi yaxshi shakllanmaganligi yoki mavjud emasligi, minoritar investorlar huquqlarining buzilish, dividend bo'lash bilan bog'liq muammolar, ma'lumotlarning ochiqlanmasligi va korporativ boshqaruv qoidalariga rioxalarning qilinmaslik holatlarining tez-tez uchrashi investorlarning mahalliy kapital bozoriga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1-жадвал

Хусусийлаштириладиган корхонада "дуе diligенсе" ни амалга ошириш босқичлари


Sanalar	Yopilish narxi	O'zgarish	Savdo hajmi (dona)	Савдо ҳажми (сўм)	Ochilgan	Yuqori narx	Past narx
10.03.2023	61999,99	-820,75	205	11887044,1	58799,99	61999,99	55000
09.03.2023	55000	-11909,5	240	13414208,7	63000	63000	55000
07.03.2023	62000,02	-6549,95	46	2971019,66	62000	64997,99	61000
06.03.2023	64000	-5103,45	70	4371766,74	67999,99	67999,99	59007
03.03.2023	68075,98	-1911,91	98	6176907,73	68076	68076	59000
02.03.2023	69000	-4186,94	173	10508381,41	58977,36	69000	58551
01.03.2023	68604	-5117,69	51	3492428	72500	72500	67965
28.02.2023	68000	-6054,97	29	1997954	69000	70002	68000
27.02.2023	69000	-5867,79	81	5722906	72398	72900	68140
24.02.2023	72500	-2975,56	61	4397976	72500	72572	70000
23.02.2023	72500	-679	26	1914600	73900	73900	72500
22.02.2023	73179	679	38	2769168,52	72500	73500	71000
21.02.2023	72500	-6198	98	7264117,11	78500	78800	70000
20.02.2023	78698	78697	116	9034319,01	74000	85000	72500

Jahon fond bozorlaridagi 2022-yilda beqarorlik, mintaqadagi geosiyosiy keskinlik, energiya ta'minoti va narxlari bilan bog'liq mojarolar hamda infliyatsiyaga qarshi kurashish siyosati ta'sirida jahon moliya bozorlaridagi benchmark foiz stavkalarining ko'tarilishda davom etishi natijasida xorijiy investorlarning mahalliy fond bozorida amalga oshirilayotgan "IPO" larga bo'lgan qiziqishi keskin pasayishini oldini olish maysadida xususiylashtirilishi belgilangan korxonalarini Xalqaro Kosul'tantlar tomonidan kompleks tahlil (Duye diligence)ni amalga oshirishda Korxonaning moliyaviy, mehnat va raqobat qonunchiligiga rioxalarning qilinishi holatini o'rganish lozim.



O'zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuniga “Davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2023-yilning 1 iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2023-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budgetlarga o'tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin qazib oluvchi korxonalar 2022 va 2023-yillardagi sof foydasining 100 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga dividendlar tarzida o'tkazadi”[1], deya qat'iy norma kiritilgan.

2022-yil 1-dekabrdan obunasi boshlangan UzAutomotors aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyoti 2022-yil 22-dekabrda o'z nihoyasiga yetishi belgilangan edi. Lekin obuna yakunlariga ko'ra 17 milliard so'mlik aksiya bo'yicha ariza kelib tushganligi bois anderrayter obuna muddatini 2023-yil 15-fevralga qadar uzaytirdi. Chunki obuna yakuni bo'yicha belgilangan oxirgi sanadagi aksiyalarga buyurtma kutilgan kapitallashuv (195,777 milliard so'm)ning bor-yo'g'i 8,7 foizini tashkil etgan. Aksiyalar soni bo'yicha tahsil qilinganda buyurtmalar boshlangandan buyon jami 233 448 dona aksiyaga umumiyligi holda 1196 ta ariza kelib tushgan va bu ko'rsatkich ommaviy savdoga qo'yilgan aksiyalar sonining 8,65 foiziga teng bo'lgan, xolos.



2-rasm. “UzAuto Motors” AJ IPO amaliyoti bo'yicha joylashtirilishi to'g'risida ma'lumot.

2023-yil 15-fevralda yakunlangan uzaytirilgan obuna yakunlariga ko'ra esa 784 703 ta aksiyaga ariza kelib tushgan va bu jami joylashtirilishi kutilgan 2 700 000 dona aksiyaning 29,1 foizini tashkil etdi. Natijada tushgan arizalar narx diapazonidagi eng past 72500 so'mlik narxda to'liq qanoatlan-tirildi va 56,89 milliard so'mlik moliyaviy resurs jalb qilindi. Bunda 80,1 foiz aksiyalar institutsional investorlar tomonidan, 19,9 foiz aksiyalar esa individual investorlar tomonidan buyurtma berilgan va taqsimlangan. 56,89 milliard so'mlik ko'rsatkich aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari bo'yicha O'zbekistonda rekord ko'rsatkich bo'lsada, savdoga qo'yilgan aksiyalarning 29,1 foizlik qismi joylashtirilganligini ijobiy baholab bo'lmaydi. Shu boisdan mazkur holatga sabab bo'lgan jihatlarga to'xtalib o'tsak.

Odatda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari yakunlangach, xalqaro amaliyotda aksiyalar kursida ko'tarilish yuz beradi. Bunga sabab barcha investorlar ham IPOdan aksiya sotib olishga



ulgurmaganligi va IPOdan keyingi jarayonlarda amaliyot o'tkazgan kompaniya istiqboliga prognozlar faqat ijobjiyan ekanligini sabab sifatida ko'stishimiz mumkin. Lekin aksiyalarini ommaviy joylashtirish amaliyotini o'tkazgan boshqa aksiyadorlik jamiyatlar qaraganda ham UzAutomotors aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyotiga ishonch ancha past bo'ldi, garli Tracker-2 avtomobili lotereyaga qo'yilgan bo'lsa ham. Buni IPOdan keyingi aksiya kursining o'zgarishi ham o'zida namoyon qilmoqda (1-jadval).

2-jadval

UzAuto Motors aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyotidan so'ng aksiyalar kursi o'zgarishi dinamikasi

Moliyaviy tahlil va baholash	Audit va moliyaviy tekshiruv	Huquqiy baholash
1. Amalga oshiradigan mutaxassislar		
Moliyaviy tahlilchilar, ekspertlar	Yuqori malakali auditorlar	Maxsus ixtisoslashgan yuristlar
2. Jamoaning ish maqsadi		
Aksiya haqiqiy bahosini aniqlash, uning kelgusidagi tebranish doirasini belgilash.	Moliyaviy tekshiruv o'tkazish, foyda va soliq risklarini belgilash.	Kompaniya faoliyatini yuridik ekspertizadan o'tkazish
3. Amalga oshiriladigan ishlar		
- korxonaning bozor, investitsion va tugatish qiymatlari baholanadi; - moliyaviy analitiklar buyurtmachiga qimmatli qog'ozlarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun bir necha xil standartlar orqali aniqlanadigan narx diapazonini taklif qiladi.	- daromadlar va xarajatlar tahlili; - ichki nazorat tizimini baholash; - Aktivlar va passivlar tahlili; - soliq risklari va natijani (foydani) belgilash; - soliq majburiyatlari va uning moliyaviy natijaga ta'sirini aniqlash.	- ta'sis hujjatlari, yuridik status, korporativ boshqaruv hujjatlari, ishonchnomalar bo'yicha sharh tayyorlanadi; - aksiyalar bo'yicha asosiy bitimlar, aksiyadorlar huquqlari ta'minlanishi, davlat tomonidan tartibga solish, mehnat munosabatlari, shikoyatda'volar hal qilinishi baholanadi.
4. Ish natijalari		
Korxona biznesini yoki aksiyalar paketini baholash to'g'risida hisobot.	Moliyaviy ekspertiza to'g'risida hisobot.	Kompaniya yuridik ekspertizasi to'g'risida hisobot.

Garchi 2023-yil 20-fevral kuni aksiya kursi 85000 so'mga ko'tarilgan bo'lsada, keyingi tebranishlar asosan pasayish tendensiyasini namoyon qilgan. 2023-yil 10-mart kuni hatto 55000 so'mdan ham aksiyalar savdo qilingan. Bu holatda 18 kunlik trenddagi pasayish 24 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Mazkur pasayish o'z-o'zidan IPO o'tkazishda aksiyalar narx diapazoni keskin yuqori belgilanganligidan dalolat beradi. 2022-yil 25 noyabr kuni UzAuto Motors aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadori qarori asosida jamiyatning 1 so'mlik nominal qiymatga ega aksiyalarining har besh ming-tasi birlashtirilgan holda 5000 so'mlik aksiyalar muomalaga chiqarildi. Ya'ni aksiyalar yiriklashtirildi. Garchi 2022-yil avgust oyida "Toshkent" respublika fond birjasida listingiga UzAutomotors aksiyador-



lik jamiyati kiritilgan bo'lsada 2023-yil 20 fevralga qadar bir dona aksiya bo'yicha ham savdo amalga oshmadi. Shunga qaramasdan, aksiyalar bozor bahosi nominal bahoga nisbatan 14,5 baravar yuqori belgilanganligi anchayin munozarali.

Navbatdagi jihat dividend amaliyoti bilan bog'liq murakkabliklardir. Passiv daromad bo'lsada korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishdagi eng asosiy richag aynan dividendlardir. Aksiyalar ni ommaviy joylashtirishga tayyorgarlik nuqtai nazaridan investitsion jozibadorlikni oshirish aynan dividendlar vositasida ta'minlanadi. IPOdan keyin investorlar bilan munosabatlar aynan dividendlar orqali samarali tashkil etiladi. Mazkur jihat o'z-o'zidan xalq IPOsini o'tkazishda muhim jihatlardan biri sifatida e'tiborimizni talab qiladi.

Korporativ axborotlar yagona portalı (openinfo.uz)da UzAuto Motors aksiyadorlik jamiyati tomonidan e'lon qilingan muhim faktlar tahlili ko'rsatmoqdaki, jamiyat 2016-yildan beri dividend bo'yicha faqat bir marta 2020-yil 3-dekabrda 32-muhim faktini e'lon qilgan. Unga ko'ra yagona aksiyadorning 2020-yil 30-sentyabrdagi qarori asosida 2019-yil yakunlari bo'yicha 1 so'mlik aksiyaga 36 tiyindan dividend to'lash to'g'risidagi qarori qabul qilingan. Qarorga asosan 2020-yil 30 sentyabrdan 2020-yil 29-noyabrga qadar to'lab berilishi belgilangan va muhim fakt 2020-yil 3 dekabrda e'lon qilingan. Aslida muhim fakt qaror qabul qilingach ikki ish kunida e'lon qilinishi lozim edi. 2020 va 2021-yillar yakunlari bo'yicha dividend to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan, umuman aksiyadorlik jamiyati tomonidan to'langan dividendlar borasida ma'lumotlar mavjud emas. Amalda IPOga chiqayotgan kompaniya dividend to'lovlariga jiddiy yondashishi va bu boradagi tahlillarni keng doirada ochiq e'lon qilishi aslida shart, deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda yana bir munozarali jihatni ham alohida qayd etib o'tishimiz lozim. 2020-2023-yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risidagi Qonunlariga asosan ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlari-yil yakunlari bo'yicha sof foydaning kamida 50 foizini dividendga yo'naltirishlari shart. Lekin UzAuto Motors aksiyadorlik jamiyati IPO kampaniyasida dividend siyosati sifatida-yillik sof foydadan 30 foiz yo'naltirilishi ko'rsatilgan. Mahalliy IPO yakunidan so'ng ham aksiyadorlik jamiyatida davlat ulushi 99 foizdan yuqori bo'lgan sharoitda dividendga sof foydaning faqat 30 foizi yo'naltirilishi haqida e'lon qilinishi ham qonun talabi bajarilmasligi, ham investorlar ishonchszligi ortishiga xizmat qiladi. Natijada esa korporativ qimmatli qog'ozlar bozori rivoji yana kechikishi yuz beradi.

IPOdan keyingi investorlar bilan munosabatlar ham, shubhasiz korporativ qimmatli qog'ozlar bozori rivoji uchun muhimdir. Ya'ni aksiyalar ommaviy joylashtirilganidan so'ng aksiyadorlar bilan munosabatlarning optimalligi hisobot davrlari yakunlari bo'yicha nafaqat dividend to'lanishi, balki dividendlarning bozor daromadliligidan yuqori bo'lishining ta'minlanganligiga ham bevosita bog'liqdir. Aynan dividendlarning bozor daromadliligidan, hech bo'Imaganda imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan qat'iy dividendlardan yuqori bo'lishi aksiyalar kursiga bevosita ijobji ta'sir ko'rsatadi. Natijada esa ikkilamchi korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi orqali investorlarning kursdag'i farq sifatida aktiv daromadlarga ega bo'lish imkoniyatlari ortadi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatlarining qo'shimcha aksiyalar emissiyasini nominaldan yuqori joylashtirishlari natijasida qo'shilgan kapital, xususan emission daromadning ortishini kutish mumkin. Aynan shu jihat aksiyalar bozori orqali arzon kapital jalb qilish borasidagi imkoniyatlarni reallikka aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda xalqchil IPO tashkil etish va o'tkazishda yuqoridagilarga e'tibor qaratish ko'zlangan maqsadga erishishda, ya'ni aholini aksiyadorga aylantirish orqali daromadlarini oshirishda, biznesning arzon kapital jalb qilishida, xususiy lashtirishning samarali kechishida, iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozoriga raqobatchi institut sifatida fond bozori rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

IPO o'tkazishi kutilayotgan davlat nazoratidagi tijorat banklari aksiyalari fond birjasida nominaldan past sotilmoqda. Bunday holatda aksiyalarni ommaviy joylashtirishga chiqishlari maqsadga muvofiq emas. Chunki aksiyalar nominaldan past joylashtirilmaydi va taklif nominal qiymat bo'yicha bo'lganda ham investor bozordan olishni afzal ko'radi.

IPOga chiqish uchun jiddiy tayyorgarlikdan o'tishni talab qilinishi bois uzoq muddatli korporativ strategiya asosida ish olib borilishi, aksiyadorlik jamiyatlarining tayyorgarlik darajasi IPO testidan



o'tkazilishi lozim.

Ustav kapitalida xususiy sektor ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining birinchi navbatda IPOga chiqishlari maqsadga muvofiq va bozor uchun o'ziga xos signal vazifasini o'tab beradi.

Bozor uchun ijobjiy signalligi bois, bozor daromadliligi asosida dividendlarni belgilab borish lozim. Mazkur jihat istiqboldagi IPOlar uchun muhim.

IPOdan keyingi bosqich, ya'ni amaliyot o'tkazilgach investorlar bilan munosabatlar manfaatlilish shartligi bois, aksiyadorlik jamiyatları ichki hujjatlarida, xususan ustavda dividendga yo'naltiriladigan sof foyda ko'rsatkichi jozibali tarzda belgilanishi lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иқтисодиётда давлат иштирокини янада қисқартириш ва хусусийлаштиришни жадаллаштиришига оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" қарори, 18.03.2022 йилдаги ПҚ-168-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида" қарори, 24.03.2023 йилдаги ПҚ-102-сон. <https://lex.uz/docs/6417192>
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Фонд биржасида акцияларнинг бирламчи ва икиламчи оммавий таклифларини ўтказишни ташкил этиш тўғрисида" қарори, 26.04.2019 йилдаги 358-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси
5. Қурбонов Ж., Омонов С., Нуралиева Д. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки. // Иқтисод ва молия, 2021. №1. – Б. 53-61.
6. Чинқулов Қ. Акциядорлик жамиятларини молиялаштиришни такомиллаштириш. // Иқтисодиёт ва таълим, 2021. №5. - Б. 243-250.
7. Боев Б. Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётини такомиллаштиришнинг асосий ўналишлари. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент, 2021. – 56 б.
8. Karimov A. Improving Mechanisms of Attracting Free Money of The Population in the Securities Market Development. //International Finance and Accounting. – 2022. – Т. 2022. – №. 1. – Р. 16.
9. Хусусийлаштириш борасидаги вазифалар белгиланди – <https://president.uz/uz/lists/view/6081>
10. https://openinfo.uz/uz/facts/?org_name=%22UzAuto+Motors%22+aksiyadorlik+jamiyati&type=32&date_from=&date_to=
11. https://openinfo.uz/uz/facts/?org_name=%22Kverts%22+aksiyadorlik+jamiyati&type=32&date_from=&date_to=
12. <https://uzex.uz/fr/pages/public-data-on-accrued-dividends>
13. <https://uzex.uz/fr/pages/Equity-structure#>
14. <http://openinfo.uz/ru/facts/67221/>



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

